

## O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA PRAGMATIK G'IYBATNING NUTQIY AKTDAGI IJOBIY VA SALBIY XUSUSIYATLARI

PhD. M.G. Xamrayeva  
[makhzunakhamrayeva@gmail.com](mailto:makhzunakhamrayeva@gmail.com)  
 Qarshi Davlat Universiteti

Tilovxo'jayeva Asila  
 Qarshi Davlat Universiteti  
 Ingliz tili filologiyasi fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutqiy aktning pragmatika va g'iypat bilan bog'liqligi, nutqiy aktlarning bir necha turlari haqida tushunchalar, g'iypat haqida umumiylumot va misollar, aniq yoki noaniq ma'lumotlarning vaqtlar o'tib g'iypatga aylanishi, g'iypatlarda ham oz bo'lsada haqiqat bo'lishi haqida hamda pragmatika tushunchasi, turlari va ularga misollar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** pragmatika, nutqiy akt, g'iypat, monologik, implikasiya, tagma'no, allyuziya, propozisiya, presupposiziya, assertiv illokusiya, bahona, bo'hton, tuhmat, ayb, moddiy boyliklar, muammo, raqobat, tilshunoslik, lisoniy birliklar, lingvistik pragmatika, nutq obyekti, ijtimoiy funksiya, muloqot, subyekt, reprezentiv pragmatika, funksional, pragmatik g'iypat.

**Abstract:** In this article, the connection of speech act with pragmatics and gossip, concepts of several types of speech acts, general information and examples of gossip, the transformation of clear or unclear information into gossip over time, gossip There is talk about the fact that there is even a small amount of criticism and the concept of pragmatics, its types and their examples.

**Keywords:** pragmatics, speech act, gossip, monologic, implication, implication, allusion, proposition, presupposition, assertive illocution, excuse, slander, slander, blame, material possessions, problem, competition, linguistics, linguistic units, linguistic pragmatics, speech object, social function, communication, subject, representative pragmatics, functional, pragmatic gossip.

Barchamizga ma'lumki, g'iypat – bu yomonlab gapirish, fisq-fasod, yo'qlik, mavjud emaslik; vaqtincha yo'q bo'lish.[7] Yanayam yondashmoqchi bo'lsak, biror kishining yomon sifatini uning o'zi yo'qligida, eshitsa unga og'ir botadigan, dili

ranjiydigan tarzda bayon etishga aytildi. Kishida mavjud bo‘lmanan ayb haqida gapirish esa tuhmat, bo‘hton hisoblanadi.[1] E’tibor bergan bo‘lsangiz, ayrim yig‘ilishlarda o‘sha yerda bo‘lmanan insonni hayotiga oid mavzu ochiladi. Birovning olgan mashinasi, moddiy boyliklari, kioilaviy muammolari haqida qizg‘in muhokama qilinadi. Shunga o‘xshash davralarda g‘iybat boshlanishi bilanoq, to‘xtatishga harakat qilmoq lozim. “*Bu g‘iybatga kiradi*”, “*G‘iybat bo‘lyaptiku?*” deya siz gap boshlasangiz, gapirayotgan odam o‘zini tiyishga harakat qiladi.

Ko‘chada uzoq muddatdan beri ko‘rmagan tanishingizni uchratib qoldingiz, salom-alik, har xil savollardan keyin orada bir sukunat paydo bo‘ladi. Ana shunda u odam orangizda yo‘q inson haqida gapira boshlaydi. Ana shu vaqtda g‘iybatni boshlanish nuqtasini to‘xtating. Ma’lum bo‘lishicha, bizning kun davomidagi g‘iybatlarimiz 52 daqiqadan iborat bo‘lar ekan. Ruhshunos Robin Danbarning aytishicha, bu vaqt ni samarali o‘tkazishga judayam yaxshi bahona va vaqt ni biroz uzaytirar ekan. Uning tushuntirishlari juda qiziq: “Qarang, - deydi Danbar, - g‘iybatlar primatlarga yashab qolishga yordam berdi. Ular bir-birini tozalashga yordam berish orqali yangi axborotlar bilan ham almashgan. Bu bizga ham o‘tgan. Bugun g‘iybatlar ulkan ijtimoiy tarmoqlar orqali xabar tarqatish imkonini yaratmoqda. Keng ma’noda olib qaraydigan bo‘lsak, g‘iybatlar ijtimoiy funksional guruhlarni saqlab qolishga muhim rol o‘ynaydi”[7]. Ya’ni, g‘iybatlasha turib, muhim axborotlar almashiniladi. Aks holda u bu darajada tez va keng tarqalmagan bo‘lardi. G‘iybat bir joydan bir joyga o‘zgarishlar kiritgan holatda yetib boradi va shu tariqa og‘izdan og‘izga ko‘chib yuradi. Bir ma’lumot g‘iybatga aylanib o‘zgarib ketishi mumkin, ba’zi hollarda g‘iybatning ichidan 10% haqiqat bo‘ladi. Masalan, Sobir: “*Boshim og‘ridi*” – desa, uni eshitib bir odam boshqasiga : “*Sobirning mazasi bo‘lmabdi*”, deydi. Huddi shu gapni eshitib boshqa birov: “*Sobirning ahvoli og‘irlashibdi*” –deya o‘zgartirishi mumkin. Hattoki bu g‘iybatga aylangan gapning oxiri “*Sobir o‘libdi*” deya yakunlanishi ham mumkin. Oradan vaqt o‘tib bizga yetib keladigan ma’lumot o‘zgarib ketgan bo‘ladi, bo‘lmanan narsa bo‘ldi deya g‘iybatga aylangan bo‘ladi. Yana bir misol: “*Ana u yerda uzun ko‘prik bor.*” ( U yerda ko‘prik borligi hali aniq emas, shunchaki aytib o‘tildi.) “*Ana u yerda ko‘prik bor emish ... ( g‘iybat ) Menimcha, ana u yerda ko‘prik bor.* ( tahminiy fikr ) “*Ana u yerda ko‘prik bor ekan, shu to‘g‘rimi?*”, “*Ana u yerda osilib turgan bir nima bor edi, shu ko‘prik bo‘lsa kerak... ( shubha ) .* “*Ana u yerda ko‘prik bor, men shundan ikki marotaba o‘tdim*” (aniq fakt) Demak, olti xil inson olti xil gapiryapti. “*Abdulhakimning qiziga usta Mavlonning o‘g‘li bir hovuch mayiz bergenini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman.*”(aybdor deb bilish). Akramjonni, boyta aytganim xotin bilan shu yerda, Guliston rayoni markazining chiqaverishida ko‘rdim. (aniq fakt) (Abdulla Qahhor) [3] Yana bir misol:

*“Bir kuni Akbar akaning uyiga begonalar kiribdi. (Tahminiy fikr ) “Akbar akaning uyiga begonalar kirgan emish. (g‘iybat ) Akbar akaning uyiga begonalar kirgan bo‘lishi mumkin. (shubha) Akbar akaning uyiga begonalar kirganini o‘zim ko‘rdim. ( aniq fakt )*

Nutqiy akt nima degan savolga ham to‘xtalib o‘tamiz. Nutqiy aktlar o‘z navbatida, stilopraktik, metaforik, ekspressiv, monologik akt ko‘rinishi kabi tahlillarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, M.Hakimov ekspresiv tagma’noni quyidagicha izohlagan: “Ekspressiv tagma’noda so‘zlovchi nazarda tutgan niyatga uning his tuyg‘ulari ham qo‘siladi. So‘zlovchi propozisional aktni sodir etar ekan, maqtanish ottenkalari aks ettirilgan yashirin ma’no kelib chiqadi.” Olim mazkur fikrga misol qilib, *“Hammasi ham unib o’sdi: biri kolxoz raisi, biri rayon madaniyat bo‘limining boshlig‘i, deputat ... Ha aytganday qaysi kuni Hakima kelgan edi, qahramon bo‘lishiga o‘ttiz bir tonna yetmabdi”* (Baribir hammasidan o‘zim dono degan g‘urur aks etib turardi) Ammo ekspressivlik har doim ham so‘zlovchi tomonidan maqtash belgilarida yuzaga kelavermaydi. Bunda evidensial ma’lumotning real voqelik va vaziyatga aloqadorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan,

- “O‘g‘ir o‘lgur ag‘darilib ketdi,” – dedi onam aybdor ohangda.
- “Nima? – dedi dadam lavlagi bo‘lagini qo‘lida tutgancha jahl bilan onamga qaradi.
- “To‘kilib ketdi”, - dedi onam boshini quyi solib. (O‘tkir Hoshimov;98)

Keltirilgan ushbu misoldagi *to‘kilib ketdi* birikmasi evedinsial voqelik ma’lumoti vaziyatni tarang qilish orqali emosional ekspressivlikni yuzaga keltirib chiqaradi. I.Arnoldning ta’kidlashicha, pragmatik ifodaning umumyashirin ma’nolari implikasiya, tagma’no, allyuziya, presupozisiya, propozisiya, kabi murakkab mazmun shakllaridan iborat bo‘ladi.

*Implikasiya* bu aniq va ochiq-oydin aytilmagan kelajakdagi ma’lumotga tahminiy xulosaviy fikr bildirish. Misol uchun, - *Maryamni chaqiring, u yoqimtoy. – Yo‘g‘e, u umuman chiroyli emas.* Mazkur gapda Maryamning yoqimtoyligi ayttilmoqda lekin u sohibjamol emasligi borasidagi ma’lumot evidensial ma’no kasb etgan.

*Tagma’no* matn semantikasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u bilan mantiqan bog‘langan boshqa qator ma’lumotlar ta’sirida yuzaga chiqadi. Masalan, *Ra’no uyiga kelibdi.* Mazkur ma’lumotda Ra’no uyining chirog‘i yoqiligi yoki mashinasini darvozasining ro‘parasida turgani uni uyiga kelganmikin degan tagma’noni anglatish borasida tahminiy evidensial mazmunga egaligi ko‘zga tashlanadi.

“*Allyuziyada so‘zlovchi bir necha nutq ishtirokchisi ichida o‘zi nazarda tutgan yashirin mazmunni ob‘yektiv mazmun semantik qatoriga tenglashtiradi. Bunda nutqi ishtirokchilari yashirin mazmunni payqamay qoladilar*” deydi olim M.Hakimov.

Allyuziyada so‘zlovchining ma’lum bir voqeа-hodisa yoki shaxs haqida noto‘g‘ri fikri va yolg‘on taassuroti yuzaga keladi. Masalan, *O‘tgan kecha ho‘l sochim bilan uxlagani yotib, ertalab sochlарim suv parisinikidek to‘zigan holda uyg‘ondim.*

*Presuppozisiya* ma’lum gap doirasida aytilgan mazmun, kontekst, vaziyatlarni qamrab oladi. U nutqiy aktlardagi ifoda mazmunini to‘ldirishga xizmat qiladi. Evidensiallik nuqtai nazaridan presuppozisiyani aytilgan gapning haqiqat ekanligiga yashirin fikr va mulohazalar orqali ishontirish deb ham baholash mumkin. U so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida aytilgan so‘zni ikkala tomonga ham aniq yoki tahmin ekanligi ko‘rsatib turuvchi tilshunoslik sohasidir. Masalan, *Katta bo‘lganingda tushunasan* (*O‘.Hoshimov.14.*) Demak, so‘zlovchi kichik yoshdagi bolaga murojat qilmoqda.

*Propozisiya* esa fikr yoki hulosani ifodalovchi tasdiq yoki yoxud qat’iy aytilgan fikr va mulohazani ifodalaydi. Misol uchun, *Yo‘q hecham xafa qilmabdi* (*O‘.Hoshimov.15.*) Demak, u xafa qilgan ham bo‘lishi mumkin. Mazkur nazariyaga ko‘ra tilda evidensiallik kategoriyasi illokutiv nutqiy aktning assertiv guruhi bilan o‘xhash vazifalarni bajara oladi degan mulohazaga kelishimiz mumkin. Zero assertiv illokusiya va evidensiallik bir-biriga monand funksiyalarni bajarganligi tufayli ularni bir-biridan ajratib olish biroz mushkullik tug‘diradi. Chunki, evidensiallik ham, assertiv illokusiya ham *ta‘kidlash, ma’lumot berish, oldindan tahmin qilish, hisobot berish* kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi. Biroq, assertiv illokusiya *ishontirish, taklif qilish, so‘z berish, qasam ichish, ulug‘lash va qoralash* kabi harakatlarni ham ko‘rsatib berishi mumkin, ammo evidensiallikda bunday harakatlar mavjud emas.

Pragmatika o‘zi nima? Pragmatika bu (yunoncha pragma, pragmato – ish, harakat) – semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilariga amal qilinishi o‘rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o‘zlashtirib, undan foydalanuvchi subyektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o‘rganuvchi fan tarmog‘i. [6]


“Pragmatik” atamasi ushbu hatti-harakat bilan shug‘ullanadigan shaxslar buni aniq maqsadni ko‘zlagan holda qilishlarini ko‘rsatadi. Bu shaxsiy manfaat uchun bo‘lishi mumkin, masalan, o‘z ijtimoiy mavqeini oshirish,raqobat muhitida ustunlikka ega bo‘lish yoki muayyan maqsadlarga erishish uchun boshqalarni manipulatsiya qilish. Pragmatik g‘iybat, shuningdek, ma’lumot to‘plash, ittifoq tuzish yoki raqobatchilarni buzish uchun professional sharoitlarda ishlatalishi mumkin. *Reprezentiv* pragmatikaga so‘zlovchining haqiqat deya ishonadigan so‘zlarini kiritishimiz mumkin. Bunday turdagи nutqqa *ta‘kidlash, ma’lumot berish, maqtash, notiqlik qilish* va h.k. kiradi.[4]

Professor Sh.Safarov “Pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lib, unda muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo‘llash hamda ushbu

qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'r ganiladi "deb izohlab, lingvistik pragmatikaning nutq subyekti, nutq obyekti, nutq vaziyati bilan bog'liq xususiy masalalariga belgilab beradi. [2]

Doktor Sara Jonson, ijtimoiy psixolog: "Pragmatik g'iybat ma'lumot almashinishni osonlashtirish va shaxslarga murakkab ijtimoiy tarmoqlarda harakat qilishda yordam berish orqali qimmatli ijtimoiy funksiyani bajaradi. Ma'sulyati va axloqiy tarzda amalga oshirilsa, u ijtimoiy hamjihatlikka hissa qo'shishi va qarorlar qabul qilishni kuchaytishi mumkin, jamiyat ichida.

Yuqoridaq nazariyalardan kelib chiqib, pragmatikani quyidagicha izohlash mumkin:



Demak, pragmatikada aniq bo'lмаган ма'lumotlar (shubha,gumon,farazlar) keltiriladi.. Xullas, pragmatika hodisasi va pragmatik mazmun bir-birini to'ldiradi.[4]

Xullas, hozirgi kunda imkoniyatlarga to'la qimmatbaho vaqtimizni bunday besamar ishlarga sarf etmoqlik qay dararajada to'g'ri? Nega g'iybat qilinadi? Muayyan bir mavzu kishilar o'rtaida ochilgandan so'ng, agar mavzu biz haqimizda bo'lmasa, nega o'zimizni boshqara olish imkoniyatimiz so'nadi? Bizni eshitadigan qulqoq borligi, bizning gapimizni ma'quillayotgan shaxs borligi bizga ruh baxsh etadimi? G'iybatlanish istagi kishilarni teng darajada qilib qo'yadi : yuqori joyda ishlaydiganlar ham oddiy odamlar ham, amaldorlar-u umuman hammani.G'iybat qilib foyda olishni bilmadim, lekin zarar ko'riliishi tayin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- [1] Abdulxay M. Laqxnaviy “G‘iybat o‘zi nima? ” – T. : “Hilol-Nashr” , 2021 264 b.
- [2] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent davlat ilmiy nashriyoti:2008. -320b.
- [3] Turkiy adabiyot durdonalari Abdulla Qahhor Mirkarim Osim. Said Ahmad “O‘zbekiston” nashriyoti 2022 590 b.
- [4] Xamrayeva M. Ingliz va o‘zbek tillarida evedinsiallikning kognitiv va pragmatik tahlili sezgi fe’llari misolida.2022dis
- [5] Xojoyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2001.
- [6] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Birinchi jild. Toshkent 2000-yil
- [7] [uz.m.wiktionary.org](http://uz.m.wiktionary.org)